badiiy tasavvurning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U davrlarni bog‘laydigan ijodiy kuch. Uning mavjudligi yuqorida Uendi Feris ta’kidlagan mo‘jizaviy realizmning beshinchi xususiyatini aks ettiradi. Bola asar metafizik manzarasini tasvirlaydi, unda qahramonlarning o‘zaro ta’siri natijasida, Redklifning qobiliyati, ishonchi yanada kuchayadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, J.Kerol mazkur romanida mo‘jizaviy realizm elementlaridan samarali foydalanadi, uni badiiy uslubiga aylantiradi. Adib mo‘jizaviy realizmdan insonning murakkab holatlarini o‘rganish uchun qanday foydalanishini ko‘rsatadi. "Gapiradigan it" va "xotira bog‘i"-lar orqali J.Kerol haqiqatning yashirin qatlamlariga kirib boradi va ichki dunyoni tasvirlaydi. Asardagi mo‘-jizalar o‘quvchilarni hayratga solmaydi, aksincha, voqealar ularni real, abiiy ko‘rinadigan dunyoga olib kiradi. J.Kerolning mo‘jizaviy realizmi g‘ayrioddiy fikrlash har doim ham tashqarida emas, balki ko‘pincha ichkarida ekanligini tan olishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Faris W.B. Ordinary Enchantments. Magical Realism and the Remystification of Narrative. Nashville Vanderbilt. University Press. 2004, 480 p.

(2). Carroll J. The Land of Laughts. Orb Books. 1980, 272 p.

(3). Carroll J. Outside of Dog Museum. Ace Books. 1991, 256 p.

(4). Bowers M.A. Magical Realism. The New Critical Idiom. London, N.Y., 2004,150 p.

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Roman-german tillari tarjimashunosligi“ kafedrasi dotsenti, f.f.n.)

KRISTINE LAVANT IJODIDA EKZISTENSIALIZM, DINIY MOTIVLAR VA INSON RUHIYATI TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr Avstriya adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Kristine Lavant hayoti hamda ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shoiraning murakkab hayot yo‘li, jismoniy va ruhiy azoblari uning poetik tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatgani yoritiladi. Tadqiqotda Lavant lirikasidagi diniy izlanishlar, ekzistensial iztiroblar, insonning ichki ruhiy kechinmalari, yolg‘izlik, qashshoqlik va jamiyatdan chetlatilish kabi mavzular tahlil etiladi. Shuningdek, uning she’riy tilidagi ramziy obrazlar, metaforik birliklar va modernistik poetika xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Lavant ijodi inson va ilohiyot o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalovchi badiiy fenomen sifatida baholanadi. Ushbu maqola shoira poetikasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kristine Lavant, Avstriya adabiyoti, modernizm, ekzistensializm, diniy lirika, poetik obraz, inson ruhiyati, metafora, modern she’riyat, mistitsizm, poetika, ichki kechinma.*

ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ, РЕЛИГИОЗНЫЕ МОТИВЫ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ В ТВОРЧЕСТВЕ КРИСТИНЫ ЛАВАНТ

Аннотация. *В данной статье анализируются жизнь и творческое наследие Кристины Лавант – одной из ярких представительниц австрийской литературы XX века. Освещается влияние сложного жизненного пути поэтессы, а также её физических и духовных страданий на её поэтическое мышление. В исследовании рассматриваются такие темы, как религиозные поиски, экзистенциальные страдания, внутренние душевные переживания, одиночество, бедность и социальная изоляция в лирике Лавант. Также анализируются символические образы, метафорические единицы и особенности модернистской поэтики её поэтического языка. Творчество Лавант оценивается как художественный феномен, выражающий сложные отношения между человеком и божественным началом. Данная статья направлена на раскрытие своеобразия поэтики поэтессы.*

Ключевые слова: *Кристина Лавант, австрийская литература, модернизм, экзистенциализм, религиозная лирика, поэтический образ, человеческая психика, метафора, современная поэзия, мистицизм, поэтика, внутренние переживания.*

EXISTENTIALISM, RELIGIOUS MOTIFS, AND THE INTERPRETATION OF THE HUMAN PSYCHE IN THE WORKS OF KRISTINE LAVANT

Annotation. *This article analyzes the life and creative legacy of Kristine Lavant, one of the prominent representatives of 20th-century Austrian literature. It highlights how the poet’s complex life path, as well as her physical and psychological suffering, influenced her poetic thinking. The study examines themes such as religious exploration, existential anguish, inner emotional experiences, loneliness, poverty, and social exclusion in Lavant’s lyric poetry. It also considers the symbolic imagery, metaphorical units, and features of modernist poetics in her poetic language. Lavant’s creativity is evaluated as an artistic*

phenomenon expressing the complex relationship between the human being and the divine. This article aims to reveal the distinctive aspects of the poet's poetics.

Keywords: *Kristine Lavant, Austrian literature, modernism, existentialism, religious lyric poetry, poetic image, human psyche, metaphor, modern poetry, mysticism, poetics, inner experience.*

Kirish. Avstriya adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Kristine Lavant ijodi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Kristine Lavant she'riyati o'zining chuqur falsafiyligi bilan ajralib turadi. Shoiraning murakkab hayot yo'li, ijtimoiy qiyinchiliklar bilan kechgan taqdiri uning badiiy dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Natijada uning lirikasida insonning ichki kechinmalari o'ziga xos badiiy ifodasini topadi. Kristine Lavant hayoti va ijodi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, uning badiiy tafakkuri bevosita boshidan kechirgan og'ir sinovlar ta'sirida shakllangan. 1915-yilda Avstriyaning Karintiya hududidagi Lavant vodiysida kambag'al oilada dunyoga kelgan shoira bolaligidan boshlab og'ir moddiy sharoit va turli xastaliklar bilan yuzma-yuz bo'ladi. Skrofuloz kasalligi tufayli uning ko'rish va eshitish qobiliyatiga zarar yetishi, keyinchalik, o'pka sili bilan kasallanishi hamda og'ir davolash jarayonlari uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy dunyosida ham chuqur iz qoldirgan. Bu holatlar uning she'riyatida tez-tez uchraydigan iztirob, yolg'izlik va umidsizlik motivlarining shakllanishiga asos bo'lgan.

Mazkur hayotiy tajribalar Kristine Lavant ijodining mazmun-mohiyatini belgilab, uning asarlarida ekzistensial iztiroblar, diniy izlanishlar hamda inson ruhiyatining murakkab kechinmalari markaziy o'rin egallashiga sabab bo'ladi. Shu bois ushbu maqolada shoira ijodida ekzistensializm, diniy motivlar va inson ruhiyati talqini kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Lavant poetikasining o'ziga xos jihatlari, uning she'riy tilidagi ramziy va metaforik ifodalar hamda badiiy tafakkurining asosiy yo'nalishlari yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotlarda shoira ijodining asosiy motivi sifatida Bibliya, xristian mistiklari, xususan, Mayster Ekxart ta'limoti, shuningdek, Sharqona meditatsiya an'analari alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Rayner Mariya Rilke va Georg Trakl kabi shoirlarning ta'siri Lavant poetikasining shakllanishida muhim o'rin tutgani qayd etiladi. Tadqiqotchilar uning ilk to'plami "Die unvollendete Liebe"da Rilke uslubiga xos poetik ohanglar sezilishini, biroq keyingi asarlarida shoiraning mustaqil badiiy ovozi shakllanganini e'tirof etadilar. Xususan, "Die Bettlerschale" to'plami Lavant ijodining yetuk bosqichi sifatida baholanib, unda insoniy azob-uqubatlar, yolg'izlik va mavjudlik muammolari markaziy o'ringa chiqishi ta'kidlanadi. "Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus" kabi nasriy asarlari esa psixologik realizm va avtobiografik unsurlar uyg'unligi orqali inson ruhiyati talqinining muhim namunasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Kristine Lavant ijodini o'rganishda bir qator zamonaviy adabiyotshunoslik metodlaridan foydalanildi. Avvalo, biografik metod asosida shoira hayoti va uning ijodiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilindi. Bu yondashuv Lavant asarlaridagi ekzistensial iztiroblar, ruhiy kechinmalar va diniy izlanishlarning manbalarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, uning she'riy va nasriy matnlari mazmunan talqin etilib, undagi ramziy obrazlar, metaforik birliklar va diniy motivlarning ma'nosi ochib berildi. Tadqiqot doirasida qiyosiy-tahliliy metod ham qo'llanilib, Lavant ijodi Rayner Mariya Rilke va Georg Trakl kabi zamondosh shoirlar merosi bilan solishtirildi. Bu esa uning poetikasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga yordam berdi. Bundan tashqari, struktur-semantik yondashuv asosida Lavant she'riyatining poetik tizimi, obrazlar va motivlar tizimi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-adabiy kontekst ham inobatga olinib, shoira ijodining XX asr Yevropa adabiy jarayonidagi o'rni belgilab berildi.

Tahlil va natijalar. Kristine Lavant (asl familiyasi Tonhauzer) 1915-yil 4-iyulda Avstriyaning Karintiya Lavant vodiysida, konchi va tikuvchi oilasida to'qqizinchi farzand bo'lib dunyoga kelgan.[1] Uning bolaligi nihoyatda og'ir moddiy sharoitda va xastaliklar iskanjasida o'tadi. Lavant skrofuloz (bezgakning bir turi) bilan og'rigan bo'lib, bu dard uning ko'rish va eshitish qobiliyatiga jiddiy zarar yetkazgan. 1948-yildan boshlab u o'zi tug'ilgan vodiy nomiga nisbat berib "Lavant" taxallusini qo'llay boshlagan. Shoira hayotida shifokor Adolf Purtscher va uning rafiqasi Paula alohida o'rin tutadi. Ular 1924-yilda nafaqat qizaloqning ko'z nurini saqlab qolishdi, balki uning adabiy iste'dodini birinchi bo'lib payqab, ijodiy yo'lini qo'llab-quvvatlashdi. Lavant o'zining "Das Kind" ("Bola", 1948) hikoyasida ushbu mehribon shifokor xotirasini abadiylashtirgan. 1927-yilda, ya'ni o'n ikki yoshida shoira o'pka siliga chalinadi. Shifokorlar unga bir yillik umr qolganini aytishgan bo'lsa-da, tajriba tariqasida o'tkazilgan kuchli rentgen muolajasi kutilmagan natija berib, u tuzalib ketadi. Biroq bu muolaja asoratsiz qolmaydi: shoiraning yuzi va bo'ynida ku-

[1] https://www.geschichtewiki.wien.gv.at/Christine_Lavant

yish izlari qoladi hamda bosh qismida kuchli sezuvchanlik paydo bo‘ladi. Shu sababli u umrining oxirigacha boshiga ro‘mol o‘rab yurishga majbur bo‘lgan. Salomatligi yomonligi bois u o‘rta maktabda o‘qiy olmadi, boshlang‘ich ta’limni ham rasmiy diplom olmasdan yakunladi. Oila kambag‘alligi va jismoniy zaifligi sababli Lavant biror kasb-hunarni egallash yoki muntazam ishlash imkoniyatidan mahrum edi.[1] 1930–1931-yillarda u uy xo‘jaligi maktabida o‘qishga urinib ko‘radi, biroq u yerdagi qat’iy diniy tartib-qoidalarga ko‘nikolmasdan, o‘qishni tark etadi. Ushbu hayotiy kechinmalar va ruhiy isyon uning “Maria Katharina” hikoyasida o‘z badiiy ifodasini topgan. Keyinchalik u ota-onasining tor uyiga qaytib, onasidan to‘qish hunarini o‘rganadi. Shoira ko‘p mutolaa qiladi va katta ishtiyoq bilan ijodga kirishadi. Uning ilk she’rlari 1933 va 1935-yillarda mahalliy gazetada chop etiladi. Biroq Gratsdagi nashriyot uning avtobiografik romanini nashr etishdan bosh tortgach, Lavant qattiq tushkunlikka tushib, qo‘lyozmani yo‘q qilib yuboradi.

1935-yilda ruhiy inqiroz sababli o‘z joniga qasd qilishga urinadi va Klagenfurtdagi ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolanadi. Ushbu og‘riqli tajriba, keyinchalik, uning mashhur “Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus” (“Ruhiy kasallar shifoxonasidan qaydlar”, 1946) asariga asos bo‘ladi. 1939-yilda u o‘zidan 36 yosh katta rassom Jozef Benedikt Habernigga turmushga chiqadi. Turmush o‘rtog‘i unga ma’naviy tayanch bo‘lsa-da, qishloq ahli shoirani “g‘alati”, hatto “telba” deb hisoblab, undan o‘zini olib qochadi. Natsistlar hukmronligi davrida amalga oshirilgan “evtanaziya” (ruhiy va jismoniy xastalarni yo‘q qilish) siyosati Lavantni qattiq qo‘rqitadi. Xavfni his qilgan shoira barcha qo‘lyozmalarini yo‘q qilib, yozishdan butunlay to‘xtaydi va faqat to‘qish bilan shug‘ullanadi. U urush yillarini “ichki sukutga mahkumlik” davri deb ta’riflagan.[2] Lavant ijodga faqat 1945-yil oxirida qaytadi. Uning 1700 dan ortiq she’r va 1200 sahifalik nasrdan iborat ulkan merosi, asosan, 1946-yildan 1950-yillar oxirigacha bo‘lgan qisqa, ammo nihoyatda samarali davrda yaratilgan. Qiziqarlisi shundaki, bu asarlarning yarmi shoira hayotligida nashr ko‘rmagan. Bugungi kunda uning to‘liq merosi to‘rt jildli izohli asarlar to‘plami holida dunyo yuzini ko‘rgan.[3] Kristine Lavantning she’riyati XX asr nemis adabiyotidagi eng o‘ziga xos va yuksak cho‘qqilardan biri hisoblanadi. Uning nasriy asarlari hali keng kitobxonlar ommasi tomonidan to‘liq kashf etilmagan bo‘lsa-da, mazmunan nihoyatda boy. Lavant o‘z ijodida o‘zi yaqindan bilgan og‘riqli mavzularni, jarohatlangan bolalar va ayollar ruhiyati, qashshoqlik, xastalik, jamiyatdan chetlatilish hamda zo‘ravonlikni mahorat bilan tasvirlaydi. Shu bilan birga, u sevgi va tasavvur kuchining insonni ozod etuvchi qudratiga ham urg‘u beradi. Ijodiy salohiyati bo‘yicha Ingeborg Baxman va Ilse Ayxinger kabi mashhur zamondoshlari bilan bir qatorda turadigan shoira 1973-yil 7-iyunda vafot etgan.[4] Lavant ijodining markazida inson hayotining cheklanganligi hamda Xudodan najot kutish va bunga bo‘lgan shubhaning o‘zaro keskin to‘qnashuvi yotadi. Uning lirikasi, asosan, “men” tilidan so‘zlanib, unda an’anaviy din (xususan, katoliklik)ning inqirozi intellektual tahlil emas, balki kuchli hissiy kechinmalar orqali ifodalanadi. Shoira tabiat hodisalarini mifologik tarzda talqin qilib, ulardan inson o‘zligini anglash ko‘zgusi sifatida foydalanadi. Shoira dunyoqarashiga quyidagi manbalar kuchli ta’sir ko‘rsatgan:

a) Muqaddas kitoblar (Bibliya);
b) Xristian mistiklari (masalan, Mayster Ekxart);
e) Sharqona meditatsiya ta’limotlari;
f) Rayner Mariya Rilke va Georg Trakl kabi shoirlarning ijodiy merosi.

Bu unsurlar uyg‘unligi Lavant she’riyatini ham diniy, ham dunyoviy azoblar iskanjasidagi inson qalbining betakror nolasi sifatida namoyon etadi.[5]

1949-yilda nashr etilgan “Die unvollendete Liebe” (“Tugallanmagan sevgi”) nomli ilk she’riy to‘plamida Kristine Lavant an’anaviy tabiat tasvirlarini o‘zining kelgusi ijodiga xos bo‘lgan vahiyga o‘xshash ohanglar bilan uyg‘unlashtiradi. Garchi bu davrda Rilke uslubining ta’siri sezilsa-da, shoiraning o‘ziga xosligi keskin sub’ektivlik, ong osti kechinmalariga yaqinlik hamda tabiatni sehrli va tahlika ostida tasvirlashida namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda Xudoga bo‘lgan ishonch hali yemirilayotgan dunyoni saqlab qoluvchi kuch sifatida ko‘riladi.[6] Shoiraning haqiqiy poetik ovozi 1956-yilda chop etilgan “Die Bettlerschale”

[1] Carola Leitner: Das verstummelte Leben, orf.at, 04.07.2015 [Biographischer Essay über Christine Lavant]
[2] Doris Moser: „Wenn nicht Himmel dann ordentlich Hölle“. Christine Lavants Leben als Dichterin. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Gedichte (Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 1), 2014, s. 649–677.
[3] Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]
[4] https://www.geschichtewiki.wien.gv.at/Christine_Lavant
[5] Inge Glaser: Christine Lavant. Eine Spurensuche. Wien: Verlag Edition Praesens, 2005.
[6] Klaus Amann: Nachwort. In: Christine Lavant: Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus. Neu hg. und mit einem Nachwort versehen von Klaus Amann. Göttingen: Wallstein 2016, s. 97–136

("Tilanchi kosasi") to'plamida to'liq shakllanadi. 156 ta she'rni o'z ichiga olgan ushbu kitobda insoniy azob-uqubatlar markaziy mavzu bo'lib, tilanchi obrazi dunyoda yolg'iz qolgan inson mavjudligining ramzi sifatida gavdalanadi. To'plam mantiqiy ravishda uch qismga bo'linadi:

1. "Die Feuerprobe"–yolg'izlik va mehr-muhabbatga tashnalikni ifodalaydi.
2. "Im zornigen Brunnen"–xuddi muqaddas kitoblardagi Ayub payg'ambar kabi azoblar iskanjasida imon uchun kurashishni ko'rsatadi.
3. "Das Auferlegte"–ruhiy ziddiyatlarning Xudo irodasiga taslim bo'lish va sabr bilan yakunlanishini tasvirlaydi.[1]

Lavant she'riyatining shakliy xususiyatlari va o'ziga xos tili shundaki, asosan, to'rt misrali qofiyali bandlardan foydalangan, biroq erkin vazndagi uzun matnlar ham uchraydi. Xudoga yaqinlashish yo'lida o'z-o'zini ayblash, qalbidagi borini butunlay oshkora ayta olish ustunlik qiladi, hatto o'zining ramzlarga boy olamini yaratishda kutilmagan so'z birikmalarini yasaydi. Jumladan, "Apfelstern" (Olma-yulduz), "Sonnenbaum" (Quyosh daraxti), "Mondrad" (Oy g'ildiragi). Bu yangi so'zlar shunchaki bezak emas, balki shoiraning yashirin ma'nolar va sirli obrazlar bilan yo'g'rilgan poetik olamini ochib beruvchi kalitlardir. Dinga ishonch tobora muammoli tus olgan sari Kristine Lavant ijodidagi ifoda ohangi ham o'zgarib boradi, u tantanavor ruhdan tortib, parodiya va hatto shakkoklik darajasigacha yetadi. To'plamning so'nggi she'rlarida esa o'limga intilish motivi markaziy o'ringa chiqadi. Pietizm an'anasiga ko'ra, bu o'lim insonni Xudo tomonidan yuklangan azobli hayotdan ozod qiluvchi yagona kuch sifatida talqin etiladi. 1959-yilda chop etilgan "Spindel im Mond" ("Oy ichidagi ip yigirgich") to'plami avvalgi asarlar mavzusini davom ettirsada, unda visioner (vahiyga o'xshash) va e'tirof ohangi yanada kuchayadi. Bu she'rlarda surrealistik tush manzaralari yaratilib, Oy ong osti, irratsionallik (aqlga sig'maslik) va inson taqdirini belgilovchi noma'lum kuchlarning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Endi dinga ishonch ham insonni bu g'ayritabiiy dunyoning arxaik kuchlaridan himoya qila olmaydigan darajaga keladi. 1960-yilda nashr etilgan "Sonnenvogel" ("Quyosh qushi") to'plamida avvalgi asarlarga xos bo'lgan qorong'i tabiat metaforalari biroz yorqinlashadi. Bu o'zgarish shoiraning so'nggi yirik asari "Der Pfauenschrei" ("Tovus qichqirig'i", 1962) to'plamiga o'tish davri bo'ldi. Mazkur to'plamda mistik obrazlar o'rnini asta-sekin realistik tabiat tasviri egallaydi. Tabiat endi barcha shubha va azoblar bilan parchalanib ketgan inson mavjudligi uchun yagona va so'nggi boshpana sifatida gavdalanadi.[2] 1960-yillarning oxiriga kelib, surunkali jismoniy xastaliklar va tobora kuchayib borayotgan ruhiy tushkunlik Kristine Lavantni o'z ijodidan uzoqlashtiradi, natijada u butunlay sukutga cho'madi. Lavant o'zining she'riy faoliyatini hech qachon estetik yutuq yoki muvaffaqiyat deb hisoblamagan. U 1962-yilda yozgan maktublaridan birida she'r yozishni "sharmandali ish" deb ataydi va agar sog'lom bo'lganida, oilasi uchun mehnat qilishni haqiqiy hayot deb bilishini ta'kidlaydi. Uning nazdida, san'at – bu ojiz hayot va ruhiyatga qarshi gunoh edi. Shu sababli shoira o'z she'rlarini o'zini ayblashning yashirin bir ko'rinishi sifatida qabul qilgan.[3]

Lavant lirikasining asosini Xudo masalasi tashkil etadi. Unda sodda diniy e'tiqod va kutilmaganda yuz beruvchi imon yo'qolishi xavfi o'rtasidagi ziddiyatli holat tasvirlanadi. Lavantning keskin shaxsparastligi, ijtimoiy-tarixiy mavzulardan deyarli voz kechishi hamda tasavvurlarining haddan tashqari kuchli xarakteri uni nemis tilidagi poeziya tarixida mutlaqo alohida hodisaga aylantiradi.[4] Shunga qaramay, uning she'riyati chuqur ekzistensial jiddiylik bilan ajralib turadi. Bu ijod insonning tobora murakkablashib va tushunarsiz bo'lib borayotgan dunyoda yashayotganini anglashidan kelib chiqadi va hayotning so'nggi ma'nosini izlashga intiladi. Shu jihatdan, Lavant o'zining betakrorligiga qaramay, modern adabiyot an'analari bilan bog'lanadi. Bu an'ana inson haqidagi yaxlit va butun tasavvurlarning yemirilishi muammosini asosiy mavzu qilib belgilagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Kristine Lavant ijodi XX asr nemis tilidagi adabiyotning muhim va o'ziga xos hodisalaridan biri hisoblanadi. Shoiraning og'ir hayotiy tajribasi, jismoniy va ruhiy iztiroblari uning poetik dunyoqarashini shakllantirgan. Lavant she'riyatida insonning ichki kechinmalari, yolg'izlik, azob, e'tiqod va umidsizlik o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar chuqur badiiy ifoda topgan. Uning

---

[1] Klaus Amann, Fabjan Hafner, Doris Moser [Hg.]: Drehe die Herzspindel weiter für mich. Christine Lavant zum 100.Göttingen: Wallstein, 2015

[2] Klaus Amann: Nachwort. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Erzählungen (Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 2) 2015, s. 788–797

[3] Wieland Schmied: Einleitung. Die Welt der Christine Lavant. In: Christine Lavant: Wirf ab den Lehm. Eingeleitet und ausgewählt von Wieland Schmied. Graz: Stiasny, 1961 (Stiasny-Bücherei, 91), s. 5–19.

[4] Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]

asarlarida diniy motivlar, ekzistensial izlanishlar va ramziy obrazlar uyg‘unlashib, inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib beradi. Shoira tabiat, mistik tasvirlar va metaforalardan foydalanib, hayotning ma’nosi, inson qismati va Xudo bilan bog‘liq savollarga poetik javob izlaydi. Shu jihatdan, Lavant ijodi nafaqat shaxsiy iztiroblar ifodasi, balki insoniyatning umumiy ruhiy tajribasini aks ettiruvchi adabiy hodisa sifatida qadrlanadi.

Kristine Lavant poetikasi modern adabiyotda individual ruhiyatni, ichki kurashni va ma’naviy izlanishni ifodalovchi noyob uslub sifatida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikda chuqur tadqiq etilayotgan, falsafiy va estetik qiymatga ega badiiy meros sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanildan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Doris Moser: „Wenn nicht Himmel dann ordentlich Hölle“. Christine Lavants Leben als Dichterin. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Gedichte (= Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 1), 2014, s. 649–677

(2). Inge Glaser: Christine Lavant. Eine Spurensuche. Wien: Verlag Edition Praesens, 2005

(3). Klaus Amann: Nachwort. In: Christine Lavant: Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus. Neu hg. und mit einem Nachwort versehen von Klaus Amann. Göttingen: Wallstein 2016, s. 97–136.

(4). Klaus Amann, Fabjan Hafner, Doris Moser [Hg.]: Drehe die Herzspindel weiter für mich. Christine Lavant zum 100.Göttingen: Wallstein 2015.

(5). Klaus Amann: Nachwort. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Erzählungen (= Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 2), 2015, s. 788–797

(6). Wieland Schmied: Einleitung. Die Welt der Christine Lavant. In: Christine Lavant, Wirf ab den Lehm. Eingeleitet und ausgewählt von Wieland Schmied. Graz: Stiasny 1961 (= Stiasny-Bücherei, 91), s. 5–19.

(7). Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]

Saidova Dildora Farhod qizi (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti; Scorpionlady03@gmail.ru)

ROBERT BYORNS SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON TIMSOLINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Robert Byorns she’riyatida lirik qahramon timsolining badiiy ifodalanishi “My Heart’s in the Highlands” she’ri misolida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda lirik qahramon “men”ining vatan sog‘inchi, tabiat bilan uyg‘unligi va erkinlikka intilishi asosiy poetik kategoriyalar sifatida o‘rganiladi. Qolaversa, lirik qahramon tushunchasining she’riyatga kirib kelishi, uninhg nazariy asoslari tadqiq etiladi. Shuningdek, Byorns poetikasining romantizm bilan bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lirik qahramon, romantizm, vatan sog‘inchi, tabiat poetikasi, individualism, elegik, milliy o‘zlik, identiklik, dualizm.*

Саидова Дилдора Фарход кизи (докторантка Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека)

ВОПЛОЩЕНИЕ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В ПОЭЗИИ РОБЕРТА БЕРНСА

Аннотация. *В данной статье проводится углубленный анализ художественного выражения образа лирического героя в поэзии Роберта Бернса на примере стихотворения «My heart’s in the highlands». В нем рассматривается лирическое «я» через тоску по родине, гармонию с природой и стремление к свободе как основные поэтические категории. Кроме того, проводится исследование введение концепции лирического героя в поэзию, а также связь поэтики Бернса с романтизмом.*

Ключевые слова: *лирический герой, романтизм, тоска по родине, поэтика природы, индивидуализм, элегия, национальная идентичность, дуализм.*

Saidova Dildora Farhod qizi (PhD student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek)

THE EXPRESSION OF THE LYRICAL HERO IN THE POETRY OF ROBERT BURNS

Annotation. *This article deeply analyzes the artistic expression of the image of the lyrical hero in the poetry of Robert Burns using the example of the poem “My Heart’s in the Highlands”. The research studies the lyrical “I” as a longing for the homeland, harmony with nature, and the desire for freedom as the main poetic categories. In addition, the introduction of the concept of the lyrical hero into poetry is studied. Also, the connection of Burns’ poetics with romanticism is scientifically highlighted.*

Keywords: *lyrical hero, romanticism, homesickness, poetics of nature, individualism, elegiac, national identity, identity, dualism.*

Kirish. XVIII asr oxiri ingliz ma’rifatchilik davri adabiyotida Shotlandiyalik Robert Byorns va uning ijodi alohida o‘rin egallaydi. Uning she’riyati romantizm va xalqona poetikaning uyg‘unligi bilan ajralib